

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

“Kiritdi”

O‘zbekiston davlat  
jismoniy tarbiya va  
sport universiteti rektori

R. Matkarimov

2026-y.

“Kelishildi”

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va  
innovatsiyalar vazirining  
birinchi o‘rinbosari

S. Radjabov

2026-y.

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston Respublikasi  
Sport vazirining  
o‘rinbosari

Sh. Maxmudov

2026-y.

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI

**61010200 - Sport faoliyati** (*basketbol, boks, voleybol, velosport, gimnastika, suzish, yengil atletika, gandbol, qilichbozlik, og‘ir atletika, eshkak eshish, tennis, futbol, badiiy gimnastika, dzyu-do, erkin kurash, belbog‘li kurash, taekvondo WT, sambo, kurash, sinxron suzish, badminton, yunon-rim kurashi, ot sporti, triatlon, biatlon, xokkey, regbi, shaxmat, karate WKF, tog‘ chang‘isi, stol tennisi, figurali uchish, chim ustida xokkey, kik-boks, mini-futbol, kamondan otish, muay-tay, kibersport, suv polosi, akademik eshkak eshish, zamonaviy beshkurash, bodybuilding va fitnes, snovbord, qo‘l jangi, ayollar kurashi, figital sport, o‘q otish va stenddan otish, o‘zbek jang sana‘ti, kriket, sport akrobatikasi, pencak silat, turon*) ta’lim yo‘nalishlari uchun.

**61010300 - Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ta’lim yo‘nalishi** uchun.

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kuzatuv Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2026 yil 25 may dagi 2 -sonli majlis bayoni.**

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish hamda natijalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me’yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-5924-son farmoni**, 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ-60-son qarori**, 2022-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-414-son qaror va farmonlari** ijrosini sifatli bajarish ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning Nukus filialidagi Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturlari sport maktablari hamda Respublika Olimpiy va paralimpiy sport turlariga tayyorlash markazlarining jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan va abituriyentlarning jismoniy mashqlari bajarishdagi amaliy harakat ko‘nikma va malakalarini baholashga mo‘ljallangan.

Mazkur dasturlarni tuzishda sport assotsiatsiyasi, sport federatsiyalar, oliy sport mahorati maktablari va sport maktablari takliflari inobatga olingan hamda ular tomonidan taqrizlar berilgan.

Dastur 61010200–Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi (basketbol, boks, voleybol, velosport, gimnastika, suzish, yengil atletika, gandbol, qilichbozlik, og‘ir atletika, eshkak eshish, tennis, futbol, badiiy gimnastika, dzyu-do, erkin kurash, belbog‘li kurash, taekvondo WT, sambo, kurash, sinxron suzish, badminton, yunon-rim kurashi, ot sporti, triatlon, biatlon, xokkey, regbi, shaxmat, karate WKF, tog‘ chang‘isi, stol tennisi, figurali uchish, chim ustida xokkey, kik-boks, mini-futbol, kamondan otish, muay tay, kibersport, suv polosi, akademik eshkak eshish, zamonaviy beshkurash, bodybuilding va fitnes, snoubord, qo‘l jangi, ayollar kurashi, figital sport, o‘q otish va stendan o‘q otish, o‘zbek jang sana’ti, kriket, sport akrobatikasi, pencak silat, turon, 61010300–Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kabi sport turlari bo‘yicha (kasbiy) ijodiy imtihonlarni o‘tkazish tartibi, abituriyentlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy mahorati, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezonlari o‘z aksini topgan.

2026/2027 O‘QUV YILI UCHUN **OT SPORTI** IXTISOSLIGIDAN KASBIY (IJODIY) IMTIHONLARINING ME‘YORIY TALABLARI VA  
BAHOLASH MEZONLARI

(Ixtisoslik bo‘yicha maksimal ball - 93 ball)

Erkaklar va ayollar uchun

<b>SPORT OTNI EGARLASH</b>	
<b>Sport otiga yugan (уздечка) taqishda ketma-ketligidagi xatoliklar:</b>	1.Sport otiga yugan taqishda texnika xavsizligi qoidalariga rioya qilmaslik; 2.Sport otiga yugan taqishda ketma-ketligini buzilishi; 3.Sport otiga yugan taqishda qismlarini tog‘ri taqilmasligi
<b>Sport otiga egar taqish qorinbog‘ taqish oyoq himoyagichlar (ногавников), taqishdagi xatoliklar:</b>	1.Sport otiga egar taqishda texnika xavsizligi qoidalariga rioya qilmaslik; 2.Sport otiga voltrap, mexovik, teskari yoki jo‘yini notog‘ri taqishlik; 3.Sport otiga egarni noto‘g‘ri taqishlik; 4.Sport otiga qorinbog‘ni taqa olmasa yoki noto‘g‘ri taqshlik; 5.Sport otiga oyoq ximoyagichlar (ногавников) noto‘g‘ri taqishlik;
<p><b>Izoh:</b> -Abituriyent tomonidan sport otnyugan va egarni taqishni tartibini to‘g‘ri va ketma-ketligda bajarsa, yuqori ball <b>20,0 ball</b> beriladi. Yugan (уздечка) to‘g‘ri va ketma-ketligi taqilgani uchun <b>7,5 ball</b> belgilanadi. Har bir xatolikka yo‘l qo‘yilgani uchun <b>2,5 jarima ballga</b> belgilanadi (ballar ketma-ketligi: -2,5; -5,0; -7,5;).</p> <p>- Egari, qorinbo‘g‘ va oyoq himoyagichlar (ногавников), to‘g‘ri taqish jarayoni uchun <b>12,5 ball</b> belgilanadi. Har bir xatolik uchun <b>2,5 jarima ball</b> belgilanadi (ballar ketma ketligi: -2,5; -5,0; -7,5; -10,0; -12,5;).</p>	

*Izoh: Jismoniy tayyorgarligini baholash uchun yuqori ball 93 ballga teng har bir maxsus mashqlarni bajarish uchun abituriyent o‘ziga tegishli sport oti, ekipirovkasi, egar jabdug‘i xalqaro ot sporti qoidalariga mos bo‘lishishart yoki qabul hay‘ati tomonidan ajratilgan sport otidan foydalanishi mumkin*

<b>SPORT OTIGA O‘TIRISH TEXNIKASI (BOSHQARISH UCHUN)</b>	
<b>Sport otiga o‘tirish texnikasi bajarishdagi xatoliklar:</b>	1.Sport otiga o‘tirishda texnika xavsizligi qoidalariga rioya qilmaslik; 2. Sport otiga o‘tirishda ketma-ketligini buzishlik; 3.Sport otiga o‘tirganda o‘tirish holati texnikasini notog‘ri bajarish; 4. Sport otiga o‘tirgandan so‘ng boshqaruvni yo‘qotish;
<b>Sport otidan tushishdagi xatoliklar</b>	1.Sport otidan tushishda oyoq, qo‘l, tana harakatlarini no‘tog‘ri bajarish; 2.Sport otidan tushishda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik;

**Izoh:** -- Abituriyent tomonidan otga o'tirish va tushish texnikasi to'g'ri bajarilsa yuqori **30,0 ball** beriladi.

Otga o'tirish texnikasi bajarish uchun yuqori **20,0 ball**dan belgilanadi. Har bir xatolikka yo'l qo'yilgani uchun **5,0 jarima ball** belgilanadi (ballar ketma ketligi: -5,0; -10,0; -15,0; -20,0).

Otdan tushishdagi jarayoni uchun **10,0 ball** belgilanadi. Har bir xatolikka yo'l qo'yilgani uchun **5,0 jarima ball** belgilanadi (ballar ketma ketligi: -5,0; -10,0).

***Izoh:** Jismoniy tayyorgarligini baholash uchun yuqori ball 93 ballga teng har bir maxsus mashqlarni bajarish uchun abituriyentlar o'ziga tegishli sport oti, ekipirovkasi, egar jabdug'i xalqaro ot sporti qoidalariga mos bo'lishishart yoki qabul hay'ati tomonidan ajratilgan sport otidan foydalanishi mumkin.*

**SPORT OTINI CHOPTIRISH (ГАЛОПОМ) ALLYUR ICHIDA O'TISHLAR VA BIR ALLYURDAN BOSHQA ALLYURGA O'TISH TAYOQLARDAN (JERDLARDAN) O'TISH**

**Sport otini choptirish (галопом) allyur ichida o'tishlar va bir allyurdan boshqa allyurga o'tish tayoqlardan (jerdlardan). o'tishdagi xatoliklar**

- 1.Otning jilovini siltashlik
- 2.Yo'nalishdan adashib ketishlik
- 3.Qo'l, oyoq va tanasi (korpus) ning bir-biriga most ravishda ishlamasligi.
- 4.Chap va o'ng oyoqdan aniq ko'tarishlar,
- 5.Otning chavandoz buyrug'iga o'z vaqtida javob bermasligi
- 6.Harakatning to'g'ri yo'nalishda va bir maromda bajara olmasligi.
7. Allyur elementlarni bajarishda bishqaruvni yoqotish.
- 8.Yo'nalish bo'ylab tayoqlardan (jerdlar) buryuqga asosan bir nechta qadamlarda kira olmasligi.
9. Yo'nalish bo'ylab tayoqlardan (jerdlar) buryuqga asosan bir nechta qadamlarda kirayotganda sport otining oyoqlari tayoqlarga (jerdlar) tegishligi
10. Barcha elementlarni bajarayotganda chavandozning qomadini to'g'ri ushlab tura olmasligi.

**Izoh:** -- Abituriyent tomonidan sport otini choptirish (галопом) texnikasi to'g'ri bajarilsa, yuqori **43,0 ball** beriladi.

Sport otini choptirish (галопом) texnikasi bajarish. Har bir xatolikka yo'l qo'yilgani uchun **4,3 jarima ball** belgilanad(ballar ketma ketligi: -4,3; -8,6; -12,9; -17,2; -21,5; -25,8; -30,1; -34,4; -38,7; -43,0;).

Sport otini choptirish (галопом) texnikasi bajarishda otdan yiqilib tushish, komissiya a'zolarini buyrug'i va ko'rsatmasisiz otdan tushsa mashq bajarilmagan hisoblanadi, natija 0,0 ballga teng bo'ladi.

***Izoh:** Jismoniy tayyorgarligini baholash uchun yuqori ball 93 ballga teng har bir maxsus mashqlarni bajarish uchun abituriyentlar o'ziga tegishli sport oti, ekipirovkasi, egar jabdug'i xalqaro ot sporti qoidalariga mos bo'lishishart yoki qabul hay'ati tomonidan ajratilgan sport otidan foydalanishi mumkin.*

2026/2027 O'QUV YILI UCHUN **OT SPORTI** IXTISOSLIGIDAN KASBIY (IJODIY) IMTIHONLARINING ME'YORIY TALABLARI VA  
BAHOLASH MEZONLARI  
(Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maksimal ball - 63 ball)

Erkaklar va ayollar uchun

Erkaklar											
1	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	3 ball	5 ball	7 ball	9 ball	11 ball	13 ball	15 ball	17 ball	19 ball	21 ball
		160-169	170-179	180-189	190-199	200-209	210-219	220-229	230-239	240-249	250
2	Ko'zlar yumulgan, qo'llar chalishtirilgan holda elkada, bir oyoqda turish (soniya).	3 ball	5 ball	7 ball	9 ball	11 ball	13 ball	15 ball	17 ball	19 ball	21 ball
		42-43	44-45	46-47	48-49	50-51	52-53	54-55	56-57	58-60	61
3	Egiluvchanlik (sm)	3 ball	5 ball	7 ball	9 ball	11 ball	13 ball	15 ball	17 ball	19 ball	21 ball
		6-7	8-9	10-11	12-13	14-15	16-17	18-19	20-21	22-23	24
Ayollar											
4	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	3 ball	5 ball	7 ball	9 ball	11 ball	13 ball	15 ball	17 ball	19 ball	21 ball
		140-149	150-159	160-169	170-179	180-189	190-199	200-209	210-219	220-229	230
5	Ko'zlar yumulgan, qo'llar chalishtirilgan holda yelkada, bir oyoqda turish (soniya).	3 ball	5 ball	7 ball	9 ball	11 ball	13 ball	15 ball	17 ball	19 ball	21 ball
		42-43	44-45	46-47	48-49	50-51	52-53	54-55	56-57	58-60	61
6	Egiluvchanlik (sm)	3 ball	5 ball	7 ball	9 ball	11 ball	13 ball	15 ball	17 ball	19 ball	21 ball
		6-7	8-9	10-11	12-13	14-15	16-17	18-19	20-21	22-23	24

**Izoh:** Jismoniy tayyorgarligini baholash uchun yuqori ball 63 ballga teng har bir maxsus mashqlarni bajarish uchun abituriyentlar o'ziga tegishli sport oti, ekipirovkasi, egar jabdug'i xalqaro ot sporti qoidalariga mos bo'lishi shart yoki qabul hay'ati tomonidan ajratilgan sport otidan foydalanishi mumkin.

Kafedra mudir



Imzo



F.I.Sh